
IKKINCHI TUMOR (TRAGIKOMEDIYA)

Erkin Vohidov

MUQADDIMA

QATNASHUVCHILAR

Mizrob Mahmudiy — Psixolog, 35—36 Yoshda

Sunbul — Singlisi, 18—19 Yoshlarda

Muattar — Psixoterapevt, 25—26 Yoshlarda

Odiljon — Radiomuxbir, 35—36 Yoshlarda

Matmusa — 22—23 Yoshlarda

Ko‘cha. Skameykada plash, shlyapa kiygan, ko‘zoynak taqqan bir odam gazeta o‘qib o‘tiribdi. Yelkasiga reportyor osgan o‘ttiz besh yoshlar chamasidagi radiomuxbir uning yoniga kelib o‘tiradi.

Radiomuxbir — (uf tortib) Hech bandai mo‘min radiomuxbir bo‘lmasin.

*Misli ishq dashtida Majnun
Men sag‘ir kuygan bag‘ir,
Chang yutib ovoraman,
Og‘zim taxir, yelkam yag‘ir.*

Gazetxon — (gazetani qo‘yib) Ha, nega xunob bo‘lyapsiz, birodar?

Radiomuxbir — E, nega xunob bo‘lmay? Bir haftadan beri bitta olimdan intervyu ololmayman. Institutga borsam, uyida, uyiga borsam laboratoriyada, laboratoriyaga borsam, — baliq oviga ketgan.

Gazetxon — Ha, sizga qiyin bo‘libdi. (Yana yuziga gazeta tutadi).

Radiomuxbir — Gazetada nima yangilik? Yana Mizrob Mahmudiyning seanslarini yozishibdimi?

Gazetxon — Qiziqasizmi? Mana, o‘qing.

Radiomuxbir — (O‘qiydi) «Mahmudiyning psixologik seanslari... Yaqinda chet tillar institutining kichik zalida olim Mizrob Mahmudiy lotin tilini o‘rganuvchi talabalar bilan psixologik seans o‘tqazdi. Bu yerda hozir bo‘lgan o‘ttiz ikki talaba Mahmudiyning sirli ishoralari bilan»... (Gazetadan bosh ko‘tarib) Qarang, sirli ishoralari bilan emish...

(O‘qiydi) «Sirli ishoralari bilan chuqur uyquga ketdi, so‘ngra institut professori lotin tili morfologiyasidan yigirma minut leksiya o‘qidi. Atoqli tilshunos olimning uyqudagi talabalarga leksiya o‘qishini kuzatib turganlar hayratdan lol bo‘lib qolgan edilar. (Gazetadan bosh ko‘tarib) Ha-ha-ha! Olim shu mahalgacha talabalarga «ko‘zingni och, uxlamay o‘tir», deb kelgan bo‘lsa, endi «ko‘zingni yum, uxla» der ekanda... Ha-ha-ha! Mana bu teskari dunyoni qarang. (O‘qishda davom etadi). Sinov komissiyasi o‘tkazgan imtihondan ma’lum bo‘lishicha, talabalar besh-olti o‘quv soatida o‘rganish mumkin bo‘lgan materialni yigirma minutlik seans vaqtida to‘la va mukammal egallaganlar». (Gazetani qo‘yib). Ana xolos. Menga qarang, birodar, siz Mahmudiyni taniysizmi?

Gazetxon — Biz birga ishlaymiz.

Radiomuxbir — Rostdanmi? Siz ham gipnozchimisiz?

Gazetxon — Biroz....

Radiomuxbir — Ayting-chi, Mahmudiy qanaqa odam? Bo‘yi, yuzi, umuman, ko‘rinishi qanday?

Gazetxon — Hammaga o‘xshagan, oddiy... taxminan mana menga o‘xshab ketadi.

Radiomuxbir — Hozir uni qayerdan topsa bo‘ladi? Menga yordam bersangiz sizdan juda minnatdor bo‘lar edim.

Gazetxon — U hozir muxbirlarni qabul qilmayapti-da..

Radiomuxbir — Meni qabul qiladi. Biz u bilan bir sinfda o‘qiganmiz.

Gazetxon — (Unga diqqat bilan qarab) Uni hozir ko‘rsangiz tanirmidingiz?

Radiomuxbir — Albatta taniyman. U jimittakkina oriqli bola edi. Ko‘zi yonib turardi. Hech qayeridan tanimasam ham ko‘zidan taniyman.

Gazetxon — (Ko‘zoynagini olib) Qani, ko‘zimga qarang-chi.

Radiomuxbir — (Hayratda) Mizrob! Rostdan senmisan? Sen! O‘zing! Mizrob, do‘stim!

Mahmudiy — Odiljon emasmisan?

Odiljon — Men, Odiljonman. Mizrob! (Quchoqlashib ketishadi).

Mahmudiy — Obbo Odiljon-ey! Qani, o‘tir-chi, do‘stim, qayoqlarda yuribsan? Ko‘rishganimizga o‘n besh yil bo‘ldi, chog‘i?

Odiljon — O‘n olti yil! Men yettinchi sinfni bitirib, xabaring bor, politexnikumga ketdim. Undan so‘ng universitetda jurnalistika fakul’tetida o‘qidim. Olti yil qishloq gazetasida ishladim. Mana yaqindan beri ra-diomuxbirman. Bu ashqol-dashqollarni ko‘tarib seni qidirib yuribman.

Mahmudiy — Mendan so‘rasang — o‘ninchini bitirib institutga kirdim. Professor Sobiriyning psixologiya kursida o‘qidim. Hozir o‘sha kafedradaman. Ilmiy ish qilyapman.

Odiljon — Bilaman. Professor bilan orangiz yaxshi emasligini ham bilaman.

Mahmudiy — Raqobat, do‘stim, raqobat.

Odiljon — Uylandingmi?

Mahmudiy — Yo‘q, oila ilmiy ishimga xalaqit beradi deb qo‘rqaman. O‘zing-chi?

Odiljon — Uylangan edim. Peshonamga sig‘madi. Uch yil turmush qildik. Yurak kasali bilan nobud bo‘ldi. Bitta qizim bilan qolganmiz.

Mahmudiy — Attang, attang.

Odiljon — Ota-onang sog‘-salomatmi?

Mahmudiy — Ular qishloqda. Bu yerda o‘zim turaman. Yaqinda qishloqdan singlim kelgan. Pedinstitutga kirmoqchi. Darvoqe, bu yerda nima qilib o‘tiribmiz. Yur, uyga ketdik.

Odiljon — Men hali sendan intervʼyu ham olishim kerak.

Mahmudiy — Intervʼyuni qo‘ysang-chi. O‘zimiz bir otamlashamiz, ketdik! (Chiqadilar)

BIRINCHI FASL

Mizrob Mahmudiyning uyi. O‘rtada stol. Chap tomonda ichkari xonaga kiradigan, o‘ng tomonda hovlidan chiqadigan eshiklar.

Xonada divan, kreslo bor. Ikki tomon devor boshdan oyoq kitob polkasidan iborat. To‘g‘ridagi derazadan oppoq bo‘lib gullagan o‘rik shoxlari ko‘rinadi. Stol ustida qog‘ozlar sochilgan. Sunbul mashinkada yozayapti. Muattar Mahmudiyning qo‘lyozmasiga qarab aytib turibdi.

Muattar — (O‘qiydi) «Bir necha yillik ilmiy tajribalar, konkret shaxslar ustida o‘tkazilgan eksperimentlar shuni ko‘rsatadiki...»

Sunbul — (tugagan varaqni mashinkadan olib) Xat boshidan o‘qing. Tekshiramiz. Xato yozib akamdan baloga qolmay.

Muattar — (O‘qiydi, Sunbul mashinkadan chiqqan qog‘ozni tekshiradi).

«Hozirgi zamon psixologiya fani insonning ruhiy dunyosiga dadil kirib bormoqda, ajoyib kashfiyotlar qilmoqda. Men yuqorida bayon qilgan xulosalar zamonaviy fanning eng so‘nggi yutuqlaridan kelib chiqadi. Iogann Dafater davri fizionomistlaridan to Krechmer jadvaligacha, Frans Gallning primitiv tajribalaridan Jozef Morenoning psixodramatik teatrigacha... o‘rganish hamda bir necha yillik ilmiy tajribalar shuni ko‘rsatadiki...»

Sunbul — Bo‘ldi. Tanaffus. Qo‘llarim qotib ketdi. (Turib qo‘llarini silkitadi, radioni qo‘yadi. Muzika eshitiladi).

Muattar — Hech bo‘lmasa, jumlaning tugatib qo‘yaylik.

Sunbul — Haliberi tugaydigan jumla emas.

Muattar — Ilmiy ish o‘zi tugay deb qoldimi?

Sunbul — Siz bilmasangiz men qayoqdan bilay, Muattar opa?

Muattar — Qiziqmisiz, Sunbuljon... Akangiz odam bilan gaplasharmidilar. U kishining doim vaqti ziq. Bir narsa so‘ragani kelsak ham ikki og‘iz so‘z bilan javob berib, haydagandek qilib jo‘natadilar.

Sunbul — Akamning fe‘li shu. Jinnilarni tekshiraverib o‘zi jinni bo‘lib qolganmi... bir balo... Ikki oydan beri hamma yoqqa e‘lon osib yigirma yoshdan o‘ttiz yoshgacha bo‘lgan sog‘lom savodsiz odamni qidirib yuripti.

Muattar — Savodsiz odamni nima qilar ekanlar?

Sunbul — Eksperiment. Akam odam miyasining xaritasini tuzayapti-ku...

Muattar — Bundan xabarim bor.

Sunbul — Shunga har xil odamlarni tajriba qiladilar. Bechoralarga rahmim keladi. Ularni nima ohanglarga solmaydi akam. Bitta sho‘rlik studentni shu yerda tajriba qildi. Qo‘ltig‘idan shipga osib, qirq joyidan nina sanchib qo‘yib yuz mingdan pastga qarab sanatdi. Odamzodning joni qattiq bo‘lar ekan, Muattar opa. Bechora churq etmadi-ya.

Muattar — Churq etmagan bo‘lsa, demak, og‘riq sezmagan-da.

Sunbul — O‘larki, shuncha nina sanchilsa-yu, og‘rimasa.

Muattar — Kelganingizga qancha bo‘ldi?

Sunbul — Ikki oy.

Muattar — Hali psixologik seanslarni ko‘p ko‘rasiz. Ko‘zingiz pishib ketadi. Faqat akangizga sekretarlik qilib, assistentlik qilib kirish imtihonlariga tayyorgarlik qolib ketmasin.

Sunbul — Qolib ketmaydi. Men aytganimni qilaman. Institutga kirmasam qishloqqa qaytib bormayman.

Muattar — Hay-hay, shaxdingizdan qayting.

Sunbul — Rost. Men aytdimmi, qilaman. O‘ninchini bitirishim bilan uzatishmoqchi edi. To‘polon qilib hamma yoqni alg‘ov-dalg‘ov qilib yubordim. Ikki yil maktabda ishladim. Sovchilar kelsa, qochish o‘rniga to‘g‘ri chiqib o‘zim gaplashaman. «Nima qilib sho‘ltirab yuribsizlar? Belida belbog‘i bo‘lsa mening oldimga yigitning o‘zi kelsin», deyman. «Voy o‘lay, — qiz emas — balo» deb sovcilar tugunini ko‘tarib qochib qolishadi. Mana oyimning dod-voyiga qaramay o‘qishga keldim. Oyimni bilasiz. «Akangni uylanmagani uylanmagan, sen ham yolg‘iz o‘tmoqchimisiz?» deb ayyuhannos soldilar. Ularga bo‘sh kelsam hozir, kim biladi, beshik quchoqlab o‘tirarmidim...

Muattar — Kelganingiz yaxshi bo‘ldi. O‘zingizga ham, akangizga ham. Bu uy uydek bo‘lib qoldi. Ayol kishining qo‘li tegmagan joy joy emas-da.

Sunbul — Aslida bu uyning bekasi allaqachon o‘zingiz bo‘lishingiz kerak edi.

Muattar — Hazilni qo‘ying, Sunbulxon. Biz akangiz bilan faqat ustozu shogird, hamqishloq sifatida ko‘rishib turamiz. Men psixoterapevtika kursini tugatayapman. Ba’zi masalalarda Mizrob akamdan maslahat olib turaman.

Sunbul — Qishlog‘imizda sizlarni allaqachon bichib-to‘qib qo‘yishgan. Haqiqatan, sizlar bir-biringizga yarashiqsizlar.

Muattar — Do‘kondan yarashgan kiyimni olib kiyish mumkin. Ertaga yarashmay qolsa boshqasini olib kiysa bo‘ladi. Hayot boshqa, singiljon. Turmush ancha murakkab.

Sunbul — Xuddi turmush ko‘rganlarday gapirasiz.

Muattar — Koʻrmasam ham koʻrgandayman. Men onamdan yosh yetim qoldim. Oʻgay onaning qoʻlida oʻsdim. U tili tez, andishasiz xotin edi. Meni ham, otamni ham koʻp xoʻrlar edi. Men oʻzimdan ham otamning azoblarini koʻrib kuyib ketardim. U bechora olamdan yorugʻlik koʻrmay oʻtib ketdi. Men shaharga ammamnikiga kelib turdim. Shu yerda oʻqidim. Gohi oʻylayman: agar vaqti soati yetib koʻnglimga yoqqan odam bilan turmush quradigan boʻlsam, uni shunday hurmat qilay, shunday eʼzozlayki, dunyoda hech bir er hech bir xotindan bunday ardoq koʻrmagan boʻlsin. Men uni har kuni ertalab oʻpib uygʻotar edim, eng yaxshi koʻrgan taomlaridan tayyorlab berardim. Oppoq koʻylaklar kiygizib, choʻntagiga toza, dazmollangan roʻmolchalar solib, shirin soʻzlab, oʻpib ishga kuzatardim, yayrab kutib olardim, toki oila unga quvonch va baxt goʻshasi boʻlsin. Toki olamga kelib rohat koʻrdim, desin.

Sunbul — Oh-oh! Agar yigit boʻlganimda sizni oʻzim olardim.

(Mahmudiy va Odiljon kiradilar).

Mahmudiy — (Koʻchadan gapirib kiradi.) Insonning miyasi, nima desam boʻladi, mana shu qogʻoz (Choʻntagidan haligi gazetani olib yozadi va yeijimlab dumaloq qiladi, soʻng kaftiga qoʻyib koʻrsatadi). Mana shu kaftimda turgan qogʻozda butun olam xabarlar bor. Unda Mahmudiyning seanslari ham, Londondagi ishchilar namoyishi ham, Fisher bilan Petrosyan matchi ham yozilgan. Unda qancha harf bor? Tasavvur qilasanmi? Toʻrt betlik gazetada qancha harf bor? Mana, insonning miyasi shu. Bu yerda (boshiga taqillatib chertadi) oʻn toʻrt milliarddan ortiq murakkab elektron mashina yotibdi.

(U uydagi odamlarga parvo qilmay, berilib soʻzlaydi. Muattar hijolatda, Odiljon ham doʻstining soʻzini boʻlolmay noqulay ahvolda. U qizlarga bir-ikki egilib salom beradi). Bu murakkab mashinalarning necha protsenti ishlaydi, qancha qismi informatsiya qabul qiladi, yaʼni insonga aktiv xizmat qiladi deb oʻylaysan? Qani, ayt-chi?

Odiljon — A? Kechirasan, eshitmadim.

Sunbul — Aka, avval mehmonni tanishtirmaysizmi?

Mahmudiy — (Endigina Muattarga koʻzi tushib) E... e... darvoqe... darvoqe... Tanishingar. Mening sinfdosh doʻstim Odiljon.

Sunbul — Men sizni tanidim, Odiljon aka!

Odiljon — (Qoʻl berib) Yanglishmasam, Sunbul...

Sunbul — Topdingiz. Men oʻsha papkangizga mushukning bolasini solib qoʻygan Sunbulman. (Arazlagan boʻlib) Oʻshanda meni Sunbul debmas, Dunbul deb

chaqirardingiz. Mana bular Muattar opam bo'ladilar.

Mahmudiy — Mo'minova. Psixoterapevt. (Odiljon bilan tanishtirgach o'zi qo'l berib so'rashadi) Yaxshimisiz, Mo'minova?

Sunbul — «Mo'minova»ga balo bormi? Muattarxon deng.

Muattar — Aytim-ku, Sunbulxon, biz jindak hamkasaba, ustozu shogird, xolos. Xo'p, men boray.

Sunbul — Qayoqqa borasiz? Mana, akam keldilar. Odiljon akam... Hamqishloqlar birpas gaplashamiz.

Muattar — Uzr, men borishim kerak. Xo'p xayr, domla Mahmudiy. (Chiqadi. Sunbul akasiga bir xo'mrayib uning ketidan chiqadi).

Mahmudiy — (Parvo qilmay gapida davom etadi). Shunday qilib, inson miyasining imkoniyatlari cheku-chegarasiz. Uning o'ndan to'qqiz qismi umr bo'yi ishga tushmasdan qolib ketadi. Men oldinga surayotgan fikrning qisqacha mazmuni shu: inson tug'ilishidan qobiliyatsiz bo'lmaydi. Faqat muayyan sharoitda bosh miyaning ma'lum nuqtalari harakatsiz qoladi. Paganini tug'ilgan yurtda skripka bo'lmaganda, u etik moylovchi bo'lar edi. Mana shunaqa, do'stim. Sen yelkangga mana bu taqir-tuqurlarni osib yuribsan. Balki sen Stanislavskiy, Nemirovich-danchenkodursan, balki Nьyuton, balki Arximeddirsan. Endi senga bitta sir aytaman — sen shu aytganlarimning hammasisan. Sen Aflotun ham Arastusan, sening qayeringdadir Iskandar Zulqarnayn uxlab yotibdi. Sen Sa'diy va Gyotesan, Ulug'beksan, Leonardo da Vinchisan. Ha-ha, do'stim. Hayron bo'lma. Bitta danakda butun bir bog' uxlab yotadi.

Odiljon — Leonarda da Vinchi deganing ancha haqiqatga yaqin. Maktabning devoriy gazetasiga hamma suvratni o'zim ishlardim. Esingdami, Mamayusuf dangasani rosa boplab chizgan edim. Ha, mendan Arximed chiqmasa ham, Leonardo da Vinchi chiqishi mumkin edi.

Mahmudiy — Ha, do'stim Odiljon, shunday vaqtlar keladiki, psixologiya ilmi inson qobiliyatlarini to'la, mukammal ochib tashlaydi. Bosh miyadagi milliard chiroqlarning qaysi biri ko'proq kuchlanishni ko'tara oladi, qaysi biri porlab yonishga quvvati yetadi — ilm ravshan aniqlab beradi. Shunda tug'ilgan go'dak faylasuf bo'ladimi, tosh ko'taradigan polvon bo'ladimi — tug'ilish guvohnomasiga qo'shib yozib beriladi. Atrofga qara, hozir nima ahvol?

Mana, uzoqqa bormay, o'z kasbdoshlaringga nazar sol. Muxbirman, jurnalistman deganlarning hammasi muxbir, jurnalistmi? Mana sening bo'lim mudiring, — u mendan interv'yu olgan, juda usta dorboz bo'lishi mumkin edi. Qadam qo'yishidan bilaman.

Hozir kim? Jurnalist. Bu ham mayli-ya, hali pensiyaga chiqqandan keyin yozuvchilik da'vo qiladi. Tomoshani ana unda ko'rasan. Hamma balo shundaki, dastavval miyasidagi kerakli, yuqori voltli chiroq yonmay qolgan. Uning o'rniga xira, qora chiroqni yoqib ko'rgan. Endi u olamdan tutab, lip-lip qilib, hammaning joniga tegib o'tib ketadi.

Odiljon — Olimlarning ichida ham darbozlar yo'q emasdir.

Mahmudiy — Albatta bor. Ammo kelajak bu masalani hal qiladi. Olimlar inson miyasining to'la xaritasini tuzadilar. Bu xarita shunday katta bo'ladiki, u bilan yer sharini o'rasa bo'ladi. Bu xarita g'uj-g'uj chiroqlar bilan qoplanadi. Chunki inson miyasining harakatsiz yotgan cho'lu sahrolari, muzliklari qolmaydi. O'yla, do'stim. Biz yer xaritasidan qancha-qancha sahrolarni yo'qotyapmiz. Ammo mana bu yerdagi (boshini ko'rsatib) dashtu biyobonlarni yo'qotishni kimo'ylaydi, kim? Yer yuzida odamqadami tegmagan joy deyarli qolmadi. Lekin ongimizda sukunat qutblari bepoyon. Biz dunyoga kelib nima ko'ramizu, nima bilamiz? Odiljon, do'stim! Ba'zan tushlarimda butun dunyo yonayotganini ko'raman. Ha, do'stim, dunyo yonayapti. Chunki biz undan bebahramiz. Dahshat, dahshat. (Suv ichadi, bir oz o'zini to'xtatib) Odiljon, sening ham kechalari uyqung qochadimi?

Odiljon — (Xo'rsinib) E, nimasini aytasan. Ba'zan oppoq sahargacha ko'zim yumilmaydi. Barno shunday tirikday menga termulib turaveradi. Ertalabgacha u bilan gaplashib chiqaman.

Mahmudiy — (Uning yelkasiga qo'lini qo'yib). O'zingni qo'lga ol. Ko'p xayol surma. Bu — gallyutsinatsiya. Hech qisi yo'q, o'tib ketadi. Bir ikki seans o'tkazamiz. Ko'zingga hech qanaqa sharpa ko'rinmaydigan bo'ladi. Mening ham ba'zan uyqum qochadi. Osmonga yulduzlarga qarayman.

*Ba'zan ko'zga uyqu kelmagan chog'lar
Ko'kka termilaman, qilaman havas.
Yo'q, u osmon to'la yulduzlar emas,
Inson aqlidagi yoniq chiroqlar.
Zuhro porlab turar falak to'rida,
O'sha sayyoradan uzmayman ko'zim.
Deyman, qani inson tafakkurida
Mening kashf etajak yorug' yulduzim.*

Tasavvur qil, do'stim! Ikki ming ikki yuzinchi yil. Inson eng olis sayyoralarga borib yetadi. Yerning har qarichi insonga xizmat qiladi. Odam, bashariyat eng murakkab avtomatlar, elektron mashinalarni boshqaradi. U avtomat, u elektron mashinalar o'z navbatida odamni, bashariyatni boshqaradi. Taraqqiy etgan Demograf mashinalar yer sayyorasi uchun bugun qancha, o'n yildan so'ng qancha, ellik yildan so'ng qancha odam kerakligini, bu odamlarning qanchasi ayol, qanchasi erkak bo'lishi kerakligini hisoblab

beradi...

Odiljon — Bitta savol.

Mahmudiy — Xo'sh?

Odiljon — O'shanda odamni dunyoga keltirish ota-bobolardan qolgan usul bilan bo'ladimi, yoki....

Mahmudiy — (Hafsalasi pir bo'lib) E... bachkana bo'lma. Men seni odam deb gapirsam....

Odiljon — UZR, uzr. Hazillashdim. Gapiraver. Qulog'im senda. Gapingga mahliyo bo'lib muxbirligim esdan chiqibdi-ku. Sendan interv'yu olishim kerak (reportyorni ochadi.)

Mahmudiy — Qo'ysangchi, o'sha ashqol-dashqolingni yop. Dunyoda nima yomon — temirga qarab gapirgan yomon. Oldimda mikrofon tursa tilimga gap kelmay qoladi.

Odiljon — Mayli, mayli. Sening aytganing bo'laqolsin. (Reportyorni ishlatib, mikrofon chiqaradi va Mahmudiyan yashirib stol tagiga qo'yadi) Mana, yopib qo'ydim. Mizrob, hali bir she'r o'qiding: «Qani inson tafakkurida mening kashf etajak yorug' yulduzim!» Menga juda yokdi. O'sha yorug' yulduzni haqiqatan kashf etish mumkinmi? (Mikrofonni bildirmay Mahmudiya to'g'rileydi).

Mahmudiy — (shavq bilan) Endi senga eng muqaddas, hali hech kimga aytmagan, umrim bo'yi (ko'kragiga qo'lini qo'yib) mana shu yerimda asrab kelgan orzumni aytaman. Mening niyatim inson tafakkuridagi ana shu yorug' yulduzni topish. Buning ma'nosi — insonning hayotidagi, jamiyatdagi o'rnini topib berish. Men orzu qilaman: shunday odambo'lsaki, u bugungi hayotimizdan chetda qolgan, g'irt omi, ongi ilm bilan zaha bo'lmagan, Lokk ta'biri bilan tabula rasa — yozilmagan oq qog'oz bo'lsa. Men uni antro-po-logik, genetik, fiziologik tekshirishlardan o'tkazsam, tafakkur tarzini o'zgartirsam, yangi yo'nalish, yangi dunyoqarash bag'ishlab, yangi dunyoning yangi odamini yaratsam.

Odiljon — Bu misli ko'rilmagan ish-ku...

Mahmudiy — Menda maxsus o'zim tayyorlagan programma bor. Laboratoriyada bu maqsad uchun mo'ljallangan apparatlar to'lib yotibdi. Endi mana buni ko'r. (Devordagi pardani ochadi. Katta xarita ko'rinadi). Nima deb o'ylaysan?

Odiljon — Oyning xaritasi.

Mahmudiy — Yo'q, bu inson miyasining xaritasi. Mana bu tog' tizmalari — xotira

chiziqlari bo'ladi. Bu yer abstrakt tafakkur vodiysi, mana bu — ishq muhabbat okeani, bu yog'i kimsasiz cho'lu sahrolar. Hali ilmning qadami bu yoqqa yetib kelmagan. Mana shunaqa gaplar, do'stim. (Pardani tushiradi. Sunbul kiradi).

Sunbul — Iye, hali shu mahalgacha dasturxonsiz o'tiribsizlarmi? (Odiljonga) Akam sizni nuqul gap bilan mehmon qilayotgan ekanlar-da. (Darrov dasturxon yozib stol tuzay boshlaydi).

Odiljon — (Reportyorni yig'ishtirib) Ovora bo'lmang, Sunbulxon. Men hozir ketaman.

Sunbul — Bir piyola choysiz qayoqqa ketasiz? Akam o'zlari shunaqa. Xafa bo'lmaysiz. Olamda nima borligini biladilar-u, uyda nima borligini bilmaydilar.

Mahmudiy — Nega bilmas ekanman. Uyda, mana, sen borsan. Men shuni bilaman, qolganini sen bilasan. Ikkita kofe. (Odiljonga) Mana, do'stim, o'n besh yildan beri shunaqa gaplar bilan kallani shishirib yotibmiz.

Odiljon — Sen ulug' olimsan, Mizrob. Avliyosan.

Mahmudiy — Eshityapsanmi, Sunbul? (Odiljonga) Sunbul ham eshitsin, bir qaytar.

Sunbul — (Ikki chashka kofe olib keladi). Nima gap?

Odiljon — Men Mizrobga ulug' olimsan, dedim.

Sunbul — To'g'ri. Ulug' olimlar jinni bo'ladi, deb eshitganman.

Mahmudiy — Ana xolos!

Odiljon — Hamma olimlar ham Mizrobga o'xshab ilmning, o'z maslagining jinnisi bo'lsa mayli edi.

Mahmudiy— (Odiljonga). Kofe yaxshi-a?

Odiljon — Zo'r!

Sunbul — Muattar opam kofeni mendan ham yaxshi damlaydilar.

Mahmudiy — Kim u?

Sunbul — Mo'minova. Shogirdingiz.

Mahmudiy — E, Mo'minova... Lekin undan katta olima chiqmaydi.

Odiljon — O‘zi yaxshi qizga o‘xshaydi.

Mahmudiy — E... Ularning hammasi bir go‘r.

Sunbul — Aka, men ketdim. Bugun Muattar opamnikida qolaman. Imtihonlarga tayyorlanaman.

Mahmudiy — Oltinchi bob mashinkadan chiqdimi?

Sunbul — Ozroq chalasi qoldi. Ertaga tugatib qo‘yaman.

Mahmudiy — Haligi maqolani gazetadan qirqib papkaga solib qo‘y.

Sunbul — Gazeta qani? O‘zingiz o‘qib yurgan edingiz.

Mahmudiy— (U yoq-bu yog‘ini qidirib, yon cho‘ntagidan haligi g‘ijimlab dumaloq qilingan gazetani oladi). Mana. Men uni miya qilib qo‘yibman-ku. (Korzinkaga tashlaydi). Bunaqa miyani korzinkaga tashlash kerak.

Sunbul — Ana shunaqa-da...

Odiljon — Hechqisi yo‘q. Menda bu gazetaning nusxasi bor. Beraman. (Qo‘ynidan gazetani olib Sunbulga beradi).

Sunbul — Xo‘p. Men ketdim.

Odiljon — (Mahmudiyga) Menga ham ijozat ber. Sunbulxonni o‘zim kuzatib qo‘yaman.

Mahmudiy — Xo‘p, Odiljon. Kelib tur. Endi muxbir bo‘lib emas, o‘zing kel.

Odiljon — Xayr.

(Sunbul va Odiljon chiqishadi. Mahmudiy ish stoliga o‘tirib qog‘ozlarni tartibga keltiradi, bir nimalar yozadi. Chiroq o‘chib yonganda Mahmudiy deraza oldida turganini ko‘ramiz).

Mahmudiy — ... Qani inson tafakkurida men yoqajak eng yorug‘ yulduz!

(Radioni qo‘yadi. Diktorning ovozi eshitiladi).

Diktor — ...Uning fikricha, kelajak jamiyat butunlay elektron hisoblash mashinalari ixtiyoriga o‘tadi. Olim muxbirimiz bilan suhbatda, jumladan, quyidagilarni aytdi:

Mahmudiy ovozi — «Kelajakda olimlar inson miyasining to‘la xaritasini tuzadilar. Bu xarita shunday katta bo‘ladiki, u bilan yer sharini o‘rasa bo‘ladi. Endi men butun umr asrab kelgan orzumni aytaman. Mening niyatim inson tafakkuridagi yorug‘ yulduzni topish...»

Diktor ovozi — Bu ezgu maqsad yo‘lida sizga sabot va omadlar tilaymiz. Sog‘-salomat bo‘ling, Mizrob Mahmudiy... Bugun chorrahalarda yo‘l harakatining buzilishi natijasida...

Mahmudiy — (radioni o‘chirib) Dod, muxbirlar dastidan dod! Ulardan qayoqqa qochib qutulaman? So‘z og‘zimdan chiqib ulgurmay, radiodan taralib turibdi-ya! Qachon yozdi, qanday yozdi? (Eshik qo‘ng‘irog‘i chalinadi). Ana yana bittasi keldi. Men yo‘qman! Mahmudiy yo‘q. (Teskari qarab quloqlarini berkitadi. Eshik sekin qiya ochiladi. Quloqchinli bosh ko‘rinadi).

Quloqchin — It yo‘qmi?

Mahmudiy — Mahmudiy yo‘q.

Quloqchin — (Kiradi. Uning egnida yayeir telogreyka, yog‘ bosgan shim. Qo‘lida sumka). Oltinchi uy shumi?

Mahmudiy — Sizga nima kerak?

Quloqchin — Xolodilʼnik tuzatgani keldim.

Mahmudiy — (Qaraydi. Uni boshdan oyoq kuzatadi) Ishqilib muxbir emasmisan?

Quloqchin — Qo‘rqmang. Unaqa odatim yo‘q.

Mahmudiy — (Unga yana razm solib) Ana xolodilʼnik. (Quloqchinli odam — yigirma, yigirma ikki yoiardagi yigitcha. U shoshmasdan telogreykani yechib kresloga tashlaydi. Titilgan yoe bosgan kamzulning yengini shimaradi. Taroq tegmagan patak sochli boshini qashib xolodilʼnik yoniga keladi).

Quloqchin — Yo Jamshid, o‘zing sharmanda qilma. (Xolodilʼnikni ochadi). Aka, buningiz ishlaymaydi-ku.

Mahmudiy — Ishlasa seni chaqirib nima qilardim? Cho‘pchak aytisharmidim?

Quloqchin — Olamga kelib bunaqa katta xolodilʼnik ko‘rgan emasman. (Shoshmasdan xolodilʼnik ichidagi ashyolarni olib tepasiga taxlaydi. Bir-ikki turtib, tepib ko‘radi.

Xolodilʼnik ishlaymaydi). Aka, bu xolodilʼnikning oti nima? Nega buncha katta?

Mahmudiy — (Xolodilʼnik ustidan kitobcha olib beradi) Mana bu — qoʻllanmasi. Oʻqib tuzataver.

Quloqchin — Eh, akajon-a, oʻqishni bilsam shunaqa qilib yurarmidim?

Mahmudiy — (Yarq etib unga qaraydi) Yoshing nechada?

Quloqchin — Yigirma ikkiga kirdim.

Mahmudiy — Oʻqishni bilmaysanmi?

Quloqchin — Harflarni bilaman. Qoʻshib oʻqishga yoʻqroqman.

Mahmudiy — Men osgan eʼlonga koʻzing tushmadimi?

Quloqchin — Qanaqa eʼlon?

Mahmudiy — Yigirma yoshdan oʻttiz yoshgacha boʻlgan savodsiz odam menga yoʻliqsin. Yonimdan pul berib oʻqitaman, deb yozganman.

Quloqchin — Afandi ekansiz. (Kuladi).

Mahmudiy — Nega?

Quloqchin — Eʼlonni savodi bor odam oʻqiydi-da. Menga oʻxshaganlar koʻchada eʼlon oʻqib yurarmidi?

Mahmudiy — Gapingda mantiq bor. Beri kel-chi. Isming nima?

Quloqchin — Matmusa.

Mahmudiy — Ota-onang bormi?

Matmusa — Ota-onam yoshligimda oʻlib ketishgan.

Mahmudiy — Qayerda turasan? **Matmusa** — «Bedananing uyi yoʻq, qayga borsa pitpildi». Eshitganmisiz?

Mahmudiy — Maktabga borganmisan?

Matmusa — Yetti yil oʻqiganman.

Mahmudiy — Demak, yetti sinf tugatgansan.

Matmusa — Yo‘q, to‘rtinchi sinfni tugatganman.

Mahmudiy — Qanday qilib?

Matmusa — Har sinfda ikki yildan...

Mahmudiy — Tushunarli. Xo‘sh, keyin-chi?

Matmusa — Keyin o‘qituvchi menga qog‘oz yozib bergan.

Mahmudiy — Qanaqa qog‘oz?

Matmusa — Bilmayman. Lekin o‘sha qog‘oz menda bor. (Qo‘ltig‘idan tumorcha olib beradi).

Mahmudiy — Bu tumor-ku.

Matmusa — Ichida o‘sha qog‘oz bor.

Mahmudiy — (Tumorni avaylab so‘kadi) Qanday qilib o‘qituvchi yozib bergan qog‘oz tumorga tikilib qoldi?

Matmusa — Rahmatli buvinga, mana bu qog‘ozni domlam berdilar, desam, buvim, hoynahoy domlang tumor yozib bergandir, deb shuni tikib berdilar.

Mahmudiy — (Tumor ichidan qog‘oz olib o‘qiydi) «To‘rtinchi «B» sinf o‘quvchisi Madaliyev Matmusa qobiliyati sust bo‘lganligi uchun o‘qishdan ozod qilinib, hunar maktabiga yuborildi. O‘zlashtirishi: ona tili — ikki, tabiiyot — ikki, tarix — ikki, arifmetika — bir...» (Matmusaga) Hisobdan sal bo‘shroq ekanlar-da.

Matmusa — (Uyalgan bo‘lib yerga qaraydi) Sal...

Mahmudiy — Hunar maktabiga bordingmi?

Matmusa — Amakim: «Qopga somon tiqish ham hunar bo‘ladi», deb meni somon bozoriga olib ketdilar.

Mahmudiy — Keyin-chi?

Matmusa — Keyin qayerdan besh tanga chiqadigan bo‘lsa, o‘sha ishni qildim.

Hammomda go‘lax, temir yo‘lda hammol bo‘ldim, mardikorchilik qildim. Yamoqchilikni ham bilaman. Botinkangiz yirtilsa bering, o‘zim yamab beraman.

Mahmudiy — Xolodilʼnik tuzatishni qachon o‘rganding?

Matmusa — Bunisini aytmayman.

Mahmudiy — Aytasan.

Matmusa — Aytsam haydab yuborasiz-da.

Mahmudiy — Haydamayman.

Matmusa — Bo‘lmasa oldin mana bu qog‘ozga — keldi, tuzatdi, deb qo‘l qo‘yib bering.

Mahmudiy — (Qo‘l qo‘yadi) Mana, qo‘l qo‘ydim. Endi ayt.

Matmusa — Rostini aytsam, men xolodilʼnik tuzatishni bilmayman. Umrimda bu ishni qilmaganman.

Mahmudiy — Bo‘lmasa, nega kelding?

Matmusa — Men «Hojat» kombinatida ishlayman. Odamlarga har xil xizmat qiladigan joy borku...

Mahmudiy — Maishiy xizmat korxonasi.

Matmusa — Shunaqa. U yerda men kiyim tozalash bo‘limida yuk tashuvchiman. Odamlardan olingan kir engillarni fabrikaga olib boraman, tozasini qaytib olib kelaman. O‘sha joydagi xolodilʼnik ustaxonasida bir o‘rtog‘im bor. Juda yaxshi bola. Shu... shu deng... Yaxshi ko‘rgan qizi bilan uchrashadigan bo‘lib qolibdi. Shu bugun. Bormasa sira bo‘lmas ekan. Direktorimiz juda qo‘rs, baqiroq odam. Yarim kunga javob bermapti. Bola menga aytib qoldi. Qog‘ozlaringni menga ber, hammasini o‘zim tinchitaman, dedim. Sen jononning oldiga boraver, xotirjam bo‘l, dedim... Xullas ko‘ndirdim.

Mahmudiy — Xolodilʼnik tuzatishni bilmasang, qanaqa qilib uning ishini bajarasan?

Matmusa — Bajarib bo‘ldim. To‘rt joyga borish kerak ekan. Ikkita uyda egasi yo‘q ekan, qo‘shnilariga qo‘l qo‘ydirib oldim, keldi, deb. Uchinchisi, aksiga egasi bor ekan, ancha qiynadi. Xolodilʼnikning atrofida bir-ikki aylanib, egasining ko‘zini shamg‘alat qilib turib bir tepdim. Baxtimni qarang, ishlab ketdi. Keyin birpas ichini kavlagan bo‘ldim-u, qog‘ozga qo‘l qo‘ydirib oldim. Egasi bechora xursand bo‘lib yana qo‘limga besh berdi.

Mahmudiy — Besh berdi?

Matmusa — Besh so‘m, deyapman. Mana. Buni o‘sha bolaning o‘ziga beraman. Jononingga ishkalat olib ber, deyman. Shunaqa, aka. Bu yokda, mana, sizniki ham oson ko‘chdi. Xo‘p, men ketdim.

Mahmudiy — Shoshma, Matmusa. O‘tir (Kreslogo o‘tqazadi va jovondan har xil asboblarni oladi. So‘ng o‘sha asboblarni bilan Matmusani tekshira boshlaydi. Qalpog‘ini yechib, sirkulga o‘xshagan asbob bilan miyasidan gardanigacha, dahanidan peshonasigacha o‘lchaydi. Chambarakka o‘xshagan narsani boshiga kiygizib ko‘radi. Lentali metr bilan peshonasining kengligini hisoblaydi).

Matmusa — Nima qilyapsiz, aka? Qalpoq tikasizmi?

Mahmudiy — Menga qara, Matmusa. Aytishingga qaraganda, sen ko‘p ishlarni ko‘rgansan. Hammol bo‘lgansan, o‘t yoqarlik qilgansan. Ayt-chi, ko‘p kasb-hunarlarining ichida o‘zingga eng yoqqani qaysi bo‘lgan?

Matmusa — Nosfurushlik.

Mahmudiy — Nima sababdan?

Matmusa — Ko‘proq pul chiqar edi.

Mahmudiy — Ekstravert. Uchinchi bosqich, to‘rtinchi daraja.

Matmusa — Labbay?

Mahmudiy — Ko‘zingga qara-chi. Mana bu nechta? (Yettita barmog‘ini ko‘rsatadi).

Matmusa — Uch kam o‘n.

Mahmudiy — Ellikdan o‘ttizni olsang qancha qoladi?

Matmusa — Ellikdan o‘ttizni olsa, qirq... yo‘q... o‘n sakkiz...

Mahmudiy — Ellik so‘m puling bo‘lsa, o‘ttiz so‘mni ishlatsang qancha puling qoladi?

Matmusa — Yigirma so‘m.

Mahmudiy — Bo‘lmasa nega qirq, o‘n sakkiz, deysan?

Matmusa — Pul bilan aytsangiz minggacha ham hisoblayveraman.

Mahmudiy — Matmusa, men seni o‘qitsam nima deysan?

Matmusa — Qo‘ysangiz-chi, hazillashmang.

Mahmudiy — Rost aytayapman.

Matmusa — O‘qishdan gapirmang. Uyqum keladi. (Esnaydi)

Mahmudiy — A’lo darajada somnambula.

Matmusa — A?

Mahmudiy — Men seni ko‘proq uyquda o‘qitaman. Qancha ko‘p uxlasang, shuncha yaxshi bo‘ladi.

Matmusa — Yo‘g‘-e...

Mahmudiy — Mana shu uyda men seni bir yil o‘qitaman. Kiyim-kechak, oziq-ovqating mendan. Haftada bir kun o‘ynab kelishingga o‘n so‘m pul.

Matmusa — Bir yilda besh yuzu yigirma so‘m!

Mahmudiy — Barakkala. Hisobga durustsan-ku.

Matmusa — Lekin meni o‘qitaman deb ovora bo‘lmang. Menga ataganingizni bering. Men ketay.

Mahmudiy — O‘qishni hohlamaysanmi?

Matmusa — Dunyoda kim ko‘p, o‘qigan ko‘p. Menga o‘xshagan savodsiz shaharda yo ikkita, yo bitta o‘zim. Shuncha olimga bitta qo‘ychibon ham kerak-da.

Mahmudiy — O‘zing bilasan. Men seni majbur qilmayman. Lekin o‘n yildan keyin o‘qimagan odamga ish qolmaydi. Ochingdan o‘lasan.

Matmusa — O‘ylaydigan xonasi kelib qoldi. (O‘rnashib o‘tiradi. Qalpog‘ini stolga qo‘yib unga qaraganicha) Nima deysiz, mulla Matmusa? O‘qiysizmi? Olim bo‘lasizmi? Tekin joy, tekin kiyim, tekin osh, yana haftasiga o‘nta so‘m pul. Xo‘sh, mulla Matmusa, shu mahalgacha hech qachon tekidan qaytmagansiz. Bir tavakkal qilamizmi? Yo‘q, shoshma Matmusa bir balosi bo‘lmasa shudgorda quyruq na qilur. (Mahmudiyga) Bir narsa so‘rrasam maylimi?

Mahmudiy — Xo‘sh?

Matmusa — Hoynahoy bekorchi odam emassiz. Har kimning tirikchiligi bor. Meni o‘qitib nima qilasiz? Sizga shundan nima foyda?

Mahmudiy — Foydam bilan ishing bo‘lmasin. Men ilmiy tajriba qilaman. Senda uxlab yotgan qobiliyatlarni uyg‘otaman.

Matmusa — Hali uxlataman, dedingiz-ku.

Mahmudiy — Seni uxlatib qo‘yib qobiliyatlaringni uyg‘otaman. Bir yilda sen o‘qimishli, madaniyatli, hamma sohalardan xabardor odam bo‘lasan.

Matmusa — O‘zimizning kombinatga xo‘jayin bo‘lamanmi?

Mahmudiy — Bo‘lishing mumkin. Tashkilotchilik qobiliyatining bormi?

Matmusa — U nima o‘zi?

Mahmudiy — Biror ishga boshchilik qilganmisan? Biror narsani uyushtirganmisan?

Matmusa — Urushtirganman. Bedana, xo‘roz, it...

Mahmudiy — Sendan boshliq chiqmasa kerak.

Matmusa — Boshliq bo‘lgandan keyin tuzukroq mansabda o‘tirish kerak-da. Kombinatga direktor bo‘lasan, desangiz, ishontirsangiz, unda mayli, o‘qiyman. Bo‘lmasa, yo‘q.

Mahmudiy — Direktor bo‘lib nima qilasan? Turgan bitgani g‘alva-ku. Seni men o‘zimga assistent qilib tayyorlayman. Mening yordamchim bo‘lasan. G‘ayrat qilsang kelajakda olim bo‘lishing mumkin.

Matmusa — Kerak emas, men faqat direktor bo‘lsam o‘qiyman.

Mahmudiy — Menga-ku seni olim qilishdan direktor qilish oson. Lekin sen o‘z foydangni bilmayapsan.

Matmusa — Yo‘q, men olim bo‘lmayman. Direktor bo‘laman. Shunga ko‘nsangiz o‘qiyman.

Mahmudiy — Direktor bo‘lishni astoydil istaysanmi?

Matmusa — Astoydil.

Mahmudiy — Men topshirgan mashqalarni astoydil bajarasanmi?

Matmusa — Bajaraman.

Mahmudiy — Bo‘pti, qaror qildik. Sen direktor bo‘lasan.

Matmusa — Yashang, aka! O‘qiganim bo‘lsin, qo‘lni tashlang.

Mahmudiy — Shoshma. Shart bor.

Matmusa — Qanaqa shart?

Mahmudiy — Shart shuki, ba‘zan bir kunda o‘n to‘rt-o‘n olti soatdan mashq, seanslar o‘tkazamiz, qochib ketmaysan.

Matmusa — Qochmayman. Yigit so‘zim.

Mahmudiy — Ikkinchidan. Bu ishimizni senu mendan, mening singlimdan boshqa hech kim bilmasligi kerak. Birovga churq etsang, tilingni sug‘urib olaman.

Matmusa — Churq etmayman.

Mahmudiy — Ana kelishdik.

Matmusa — Mening ham shartim bor.

Mahmudiy — Xo‘sh?

Matmusa — Menga «direktor bo‘lasan», deb qog‘oz yozib berasiz.

Mahmudiy — Qog‘ozni buncha yaxshi ko‘rmasang. Mayli, yozib beraman.

Matmusa — Keyin... rostini aytsam, o‘lgudek po‘stakman, darsingizni bilmay qolsam urmaysiz.

Mahmudiy — Urmayman. (O‘ltirib qog‘ozga bir nimalar yozadi).

Matmusa — Bo‘pti. Mana endi suyinchisiga bitta otadigan xonasi keldi. (Cho‘ntagidan nosqovoq oladi va og‘ziga bir kaft tashlab, nosqovoqni Mahmudiyga uzatadi) Nosdan oling, aka.

Mahmudiy — Rahmat, bermalol. Mana eshit. (O'qiydi) «Hojat» korxonasining yuk tashuvchisi Matmusa bir yildan so'ng shu kombinatga direktor bo'ladi. Komil ishonch bilan imzo chekdim. Mizrob Mahmudiy». Mana ol. Bo'ldimi?

Matmusa — «Matmusa Jalilovich», deb yozing.

Mahmudiy — Bor, ana Matmusa Jalilovich bo'laqolsin. (Yozadi) Endi bo'ldimi?

Matmusa — Bo'ldi. Men buni tumor qilib taqib olaman.

Mahmudiy — Bilganingni qil. Lekin birinchi tumoring xotira uchun menda tursin. Seni qobiliyatsiz deganlarga kaltak qilamiz. Mana, Matmusavoy, shu bugundan boshlab sen menga shogird men senga ustoz bo'ldim. Biz ishni hoziroq boshlaymiz. Borib senga yangi kiyimlar sotib olamiz. Ertaga ertalab birinchi dars. Qani, ketdik.

(Eshikka qarab yuradi. Matmusa og'zidagi nosni siyohdonga tuflab uning ketidan chiqadi.)

Parda

IKKINCHI FASL

BIRINCHI MANZARA

Oradan uch oy o'tdi. Mizrob Mahmudiyning ish kabineti. Ro'baro'dagi ikki derazaga parda tutilgan. O'ng va so'l tomondan devorlar kitob javoni bilan qoplangan.

Kichik stolchalarda, jovon polkalarida magnitofon, diktofon va turli akustika asboblari. O'rtada katta stol. Ikki yonida ikkita stul.

Stol yonida zalga qarab Matmusa turibdi. U chiroyli yozgi kostyumda. Neylon ko'ylak ustidan kostyum rangida och galstuk taqqan. Yangi o'stirgan sochini chiroyli qilib yonboshga taragan.

O'ng qo'lida bir varaq qog'oz, chap qo'lida qalam. U qalamni stol ustida turgan kamertonga urib, zalni tinchitadi.

Matmusa — Tinchlaning, o'rtoqlar! (Qog'ozga qarab) Majlis qarorini ovozga qo'yaman. Hozir o'qib eshittirilgan qaror qabul qilinsin, deganlar qo'l ko'tarsin! (Qo'l ko'taradi va qo'lini tushurmay, xatga qaragancha davom etadi.) Qarshi yo'q, betaraf yo'q. Qaror bir ovozdan qabul qilinadi.

Ovoz — Stop, stop! (Parda orqasidan Mahmudiy chiqib keladi. U pijama va yengil finka kiygan. Qo'lida tayoqcha.) Birinchidan, qaror ovozga qo'yilganda qog'ozga emas,

odamlarga qarash kerak. Mana bunday. (Tayoqcha bilan Matmusaning dahanidan ko'tarib zalga qaratadi.). Garchi odatda qarshi, betaraf bo'lmasa ham tartib yuzasidan shunaqa qilinadi. Ikkinchidan, qarshi va betaraflarni so'raganda majlis olib boruvchi qo'lini tushirishi kerak. Qoida shunday. Davom etamiz. (Matmusa tugmalarini yechib, terlab ketgan yuzini, bo'yinlarini pidjakning etagiga artadi. Shu payt Sunbul ikki kosa ovqat ko'tarib kiradi.)

Sunbul — Ertalabdan beri tuz totganinglar yo'q. Biroz tamaddi qilib olinglar.

Mahmudiy — Vaqt yo'q! Bizga halal berma.

Sunbul — (Ovqatni stolga qo'yib, labini yalab turgan Matmusaga rahmdillik bilan qaraydi va chiqaturib) Ovqat sovib qolmasin, aka. Men institutga ketdim.

Mahmudiy — Davom etamiz.

Matmusa — (ikki ko'zi ovqatda) Davom etamiz.

Mahmudiy — (bloknotga qarab) Xo'sh nimaga kelib to'xtadik?..

Matmusa — Xo'sh... nimaga kelib to'xtadik?

Mahmudiy — Telefonda so'zlashishni qaytardik. (Bloknotdan punktma-punkt o'chiradi) Xodimlarni qabul qilishni o'tdik... Katta boshliqqa choy uzatish... Savol berilganda gapni chalg'itish... Quyuq va'da berish... Dag'dag'a qilganda stolning qayeriga mushtlash... kresloda o'tirish, qadam tashlash qoidasi... (o'chira turib to'xtaydi.) Mana shu yerda kamchilik bor. Qaytaramiz. Qani, mana bu yerga turing.

Matmusa — (ovqatdan zo'rg'a ko'zini olib.) A?

Mahmudiy — Yurishni mashq qilamiz. Koridorda qanday yurish kerak? (Matmusa bilgancha yurib ko'rsatadi) Yo'q. Mana bunday. Yonimda yuring. Qo'l! Qo'l qayerda bo'lishi kerak? Mana bundoq! (Qo'lga tayoqcha bilan urib orqaga qilib qo'yadi.) Qorin! Qorinni chiqaring! (Matmusa qornini ichiga tortadi.) Chiqaring, deyaqman!

Matmusa — (G'o'ldirab) Qorinda hech vaqo yo'q...

Mahmudiy — Darvoqe... Tanaffus.

(Matmusa boshvog'i yechilgan kuchukday chopib borib stulga o'tiradi.) Stop-stop! Boshqatdan. Qani, qanday o'tirish kerak?

(Matmusa boshini egib joyiga qaytadi va asta, gerdayib yurib stolga o'tiradi. Shoshmay

atrofga qaraydi. Yo‘q odamlarga salom beradi. Irjayadi. So‘ng asta qoshiqqa qo‘l uzatadi. Salfetkaga yaxshilab artadi.)

Bu boshqa gap. Qani, oling.

Matmusa — Marhamat...

(U endi ovqatga qo‘l uzatganda Odiljon kirib keladi. U Matmusani ko‘rib, tavoze bilan salom beradi.)

Odiljon — Salom...

(Matmusa va Mahmudiy sarosimada o‘rinlaridan turishadi.)

Uzr. Sizlarni bemahal bezovta qildim, shekilli.

Mahmudiy — Hechqisi yo‘q. Kelaver. (Chetga) — Endi bo‘lar ish bo‘ladi. (Odiljonga Matmusani tanishtirib) Bu kishi kombinat direktori Matmusa Jalilovich, bu mening do‘stim **Odiljon** — muxbir. Tanishinglar.

Odiljon — Tanishganimdan mamnunman.

Matmusa — Men ham... Men ham... Maymunman.

(Mahmudiy uni qattiq turtadi.) Qani, marhamat... (O‘tirishadi. Mahmudiy javondan shisha va ryumkalar olib stolga qo‘yadi.)

Odiljon — (Shishani ochar ekan) Matmusa Jalilovich, qayerdan bo‘ladilar?

Matmusa — Itboqardan.

Odiljon — Itboqardan?

(Mahmudiy Matmusani turtadi)

Matmusa — Yangi nomi Aljabriy ko‘chasi. (Yod olgan so‘zlarni takrorlab) Aljabriy o‘rta asrning buyuk olimi, riyoziyotchisi va munajjimdur.

Mahmudiy — (Xursand. Matmusaga) U kishining qanday kashfiyotlari bor, degan edingiz?

Matmusa — (darhol) Al-Jabriy oliy riyoziyot tenglamalari ustida bir necha kashfiyotlar qilgan, shuningdek, bu olimning Sirius yulduzlar turkumining mavqei to‘g‘risida

birmuncha farazlari bo‘lib, bular hozirgi zamon ilmi ko‘rsatkichlariga ma’lum darajada yaqin keladi.

Mahmudiy — (Odiljonga) Matmusa Jalilovich hamma sohadan xabardorlar. (Matmusaga) Siz Odiljonga ko‘cha harakatining yangi qoidalari to‘g‘risidagi fikrlaringizni aytib bering.

Matmusa — Xo‘p bo‘ladi. Modomiki jamiyat...

Mahmudiy — Uzr, Matmusa Jalilovich, sizlar suhbatlashib o‘tiringlar. Men Odiljonga ham ovqat suzib chiqaman. (Odiljonga) ro‘zg‘or o‘zimizga qolgan, do‘stim...

Odiljon — Ovora bo‘lma.

Mahmudiy — Ovorasi yo‘q... Men... Hozir...

(Chiqadi).

Matmusa — Modomiki...

Odiljon — Qani, Matmusa Jalilovich, Mizrob kelguncha bittadan otaylik. Sizning sog‘ligingiz uchun. (Stakanni uning qo‘liga tutadi.) Qani, oldik (ichishadi).

Matmusa — Br... r... bay-bay-bay, jonvor-ey.

Odiljon — (Uning xarakterini kamtarinlik va odamoxunlik deb qabul qiladi va sidqidildan kuladi.) Matmusa Jalilovich, ko‘changizning eski nomi nima edi?

Matmusa — A... (Shapillatib ovqatlanishda davom etadi.)

Odiljon — Aljabriy ko‘chasining eski nomi...

Matmusa — Al-Jabriy o‘rta asrning buyuk...

Odiljon — Aytingiz. Men o‘sha ko‘chaning eski nomini so‘rayapman. Nima edi? It... it..

Matmusa — Itboqar.

Odiljon — Taajjub. Nega bunday deb atashgan ekan. Balki bu ko‘chada ko‘proq it boqilgan bo‘lsa kerak.

Matmusa — Esimga tushib qoldi. (Kosani ko‘tarib, oxirigacha ichib qo‘yadi) Men ham bir it boqqanman. (Matmusa shira kayf ta’sirida o‘ynayotgan rolini esdan chiqaradi.) Oti

qoplon. Vo! Ammo lekin bunaqa zo‘r it dunyoda bo‘lgan emas. Bir kun Chimkent tomondan bir itboz kelib qoldi. Iti it emas — eshshak. Bo‘yi sizdan bir qarich baland.

Odiljon — Yopiray...

Matmusa — Haligini ko‘rgan boshqa itlar dumini xoda qilib qoldi. Men chiqib bordim. Necha pul tikasan dedim? Ming so‘m, dedi. Men Qoplonning qulog‘iga: «Akan o‘rgilsin, — dedim, — manovi eshakka tobing qalay?» Qoplon: «Meni qo‘yvor, o‘zim boplayman», dedi. Qo‘yvordim. Bir payt Qoplonim haligi itning mana shu yeridan (Odiljonning gardanidan mahkam ushlaydi) g‘arch tishlab, mana bunday, mana bunday, mana bunday aylantirib... (Odiljonni gir-gir aylantiradi.)

Odiljon — Matmusa Jalilovich, Matmusa Jalilovich...

Matmusa — Yana bir aylantirib, mana shunday uloqtirdi. (Odiljon divanga borib tushadi.)

Odiljon — Matmusa Jalilovich.

Matmusa — Haligi it sho‘rlik laychaga o‘xshab «vang-vang» qiladi (Odiljon Matmusaning ko‘zini shamg‘alat qilib qochmoqchi bo‘ladi.) Bir payt qarasam itining ahvolini ko‘rgan haligi olifta juftakni rostlamoqchi. «Hov, nomard, qayoqqa?» (Odiljon to‘xtaydi) Shunday dedimu, shart yoqasidan ushlab mana bunday qilib o‘tqizib qo‘ydim. (Kresloga o‘tqazadi) «Qani, pulni cho‘z, nomard, bo‘lmasa quloq-chakkangni yorib qo‘yaman». (Qulochkash qilib turganda tarelkada ovqat olib Maxmudiy kiradi.)

Mahmudiy — (Sirning fosh bo‘lishidan qo‘rqib) Matmusa Jalilovich, sizni telefonga chaqirishyapti. Narigi uyga...

Matmusa — Telefonga? (Odiljon teskari qarab egnini tartibga solayotganidan foydalanib Mahmudiy Matmusani qattiq chimchilab oladi. Matmusa bir sakrab) Kechirasizlar, men hozir... bir minutga... (Chiqadi.)

Mahmudiy — Kechirasan-da, do‘stim, direktor madaniyatdan sal...

Odiljon — Nega? Aksincha. Matmusa Jalilovich menga juda yoqdilar. Oddiy, samimiy. Bilmagan odam sira direktor demaydi.

Mahmudiy — Shunday.

Odiljon — Endi men boray. Yo‘lim tushib, seni ko‘rgani kiruvdim. (Matmusaning sharpasini eshitib) Xo‘p, xayr.

Mahmudiy — Ovqat-chi?

Odiljon — (Deyarli qochib chiqadi) Ko‘rishamiz, gaplashamiz...

Mahmudiy — (Bloknotiga yozib qo‘yadi) «Ko‘rishamiz, gaplashamiz...» Yaxshi! Matmusa!

(Matmusa bosh egib kiradi)

Odamning har narsa bo‘lgani yaxshi. Nima qilib qo‘ydingiz?

Matmusa — O‘zingiz erkin gaplashish kerak degan edingiz-da...

Mahmudiy — Erkin gaplashmay o‘ling. Boshliq degan shunaqa bo‘ladimi? Odiljon sezgan bo‘lsa, bu gapni olamga yoysa nima bo‘ladi? Uch oylik mehnatim bir pul bo‘ldi.
Matmusa — hali o‘sha Matmusa. Essiz mehnatlarim, uyqusiz kechalarim. Bo‘ldi. Men yanglishibman. Ertaga ilmiy sovetga borib barcha xatolarimni bo‘yningizga olaman. Siz ham xatoni bo‘yningizga oling-da, o‘sha hammolligingizga boring.

Matmusa — Tavba qildim.

Mahmudiy — Bo‘ldi. Men umrimni bekor o‘tkazmayman. Men katta ishlar uchun yaratilgan odamman! Gap tamom!

Matmusa — Jon aka! Meni haydamang. Men endi qanday qilib hammolligingizga boraman? Qo‘llarim oqarib qoldi.

Mahmudiy — Siz — ikki oy oftobda yursangiz — yana o‘sha Matmusasiz. Qiyin bo‘lganda — menga bo‘ldi. Uch oylik mehnatim kul bo‘ldi — bir, umrlik nazariyam vayron bo‘ldi — ikki, butun institut oldida sharmanda bo‘ldim — uch. Siz nima yo‘qotdingiz? Bo‘yningizning kirini yo‘qotdingiz, g‘irt omeligingizni yo‘qotdingiz, boshingizdagi patakni yo‘qotdingiz. Bo‘pti. Oramiz ochiq. Sizga javob.

Matmusa — Tavba qildim. Minbad tavba qildim. Ikkinchi bunday qilmayman.

Mahmudiy — (Bir oz jahldan tushib) O‘rningizdan turing. Bir narsani sira unutmangki, boshliq — hamma vaqt boshliq. Idorada ham, uyda ham, ko‘chada ham, — ulfatda ham. Siz Matmusaligingizni butunlay unutishingiz kerak. Mana bu yerdan ham, (kallani ko‘rsatadi), mana bu yerdan (yurakni ko‘rsatadi) chiqarib tashlashingiz kerak.

Matmusa — Chiqarib tashlayman.

Mahmudiy — Hamma ishni boshqatdan boshlaymiz. Divanga yoting. Oyoqlaringizni

uzating. Ko‘zingizni yuming... (Chiroq o‘chadi) Ko‘z oldingizga keltiring, siz katta amaldorsiz...

(Matmusa uyqusida asta divandan turadi. O‘rgatilgan qadamlar bilan yurib kresloga keladi. Qo‘l, oyoqlarini chalishtirib, boshini bir oz orqaga tashlab asta o‘tiradi. Qo‘ng‘iroqni chaladi. Juda bashang kiyingan, bo‘yalgan sekretar qiz shaklida Sunbul kiradi.)

Sekretar qiz — Chaqirdingizmi, Matmusa Jalilovich?

Matmusa — Ayting. Kirsin!

Sekretar qiz — Xo‘p bo‘ladi (chiqadi. Qo‘ltig‘ida papka ko‘targan, ikki qo‘li ko‘ksida — xodim kiradi — qulluq qilib turadi.)

Matmusa — (mayin) nega topshiriqni bajarmading? (Dag‘daga bilan) nega topshiriqni bajarmading?

Xodim— Bir qoshiq qonimdan o‘ting...

Matmusa — Chora ko‘ramiz! Ha, chora ko‘ramiz! Javob! (Xodim chiqadi. Bir necha qog‘oz ko‘tarib sekretar qiz kiradi. Matmusaning orqasiga o‘tib, bir qo‘li bilan uning sochlarini silaydi, bir qo‘li bilan qog‘ozlarini Matmusaning yelkasidan oshirib stolga qo‘yadi. Matmusa yuzlarini bilakka qo‘yib erkalanadi.)

Matmusa — Qayerga qo‘l qo‘yaman, jonim?

Sekretar qiz — Jonim, mana bu yerga qo‘l qo‘yasiz...

Matmusa — (Qo‘l qo‘yar ekan) Bugun ishdan keyin baliq oviga boramiz.

Sekretar qiz — Demak, bugun hayotimda eng baxtli kunim bo‘ladi.

Matmusa — Jonginam...

Sekretar qiz — Jonginam... Charchadingiz, uxlang, men sochlaringizni silab turaman. (Matmusa erkalanib nozaninning qo‘liga bosh qo‘yib uyquga ketadi, qorong‘ulik cho‘kadi.)

IKKINCHI MANZARA

Bir yil o‘tdi. Mahmudiyning xonasi. U stol yonida yozib o‘tiribdi. Bashang kiyingan Matmusa kiradi.

Matmusa — Salom, ustoz!

Mahmudiy — (Ishdan bosh ko‘tarib, unga havas bilan qaraydi) Salom, Matmusa Jalilovich! Kombinatning ishlari qalay?

Matmusa — Korxona ishlari yaxshi ketyapti, ustoz. (Kresloga o‘tirib oyoqlarini chalishtiradi.)

Mahmudiy — Bugun ilmiy sovetda nutq so‘zlashingiz kerak. Bir yillik mehnatimizning hisobotini berishimiz kerak, yodingizda bormi?

Matmusa — Yodimda bor, ustoz.

Mahmudiy — Yig‘ilishga shaharning hamma yirik olimlari taklif qilingan. Institutning katta zali to‘la odam bo‘ladi. Hech bir hayajonlanmasdan, o‘zni yo‘qotmasdan o‘sha ikkalamiz tayyorlagan yozuv asosida qirq minut nutq so‘zlaysiz. Savollar bo‘lishi mumkin. Xotirjam javob beraverasiz. Bilmaganingizni uyalmay bilmayman, deb aytavering.

Matmusa — Xo‘p bo‘ladi, ustoz.

Mahmudiy — Menga savol bo‘lmasa, institutga ketdik. Ixtiyorimizda bir soat vaqt qoldi.

Matmusa — Bitta savol bor (O‘rnidan turib, Mahmudiyning oldiga keladi. Oyoqlarini kerib, qo‘lini cho‘ntagiga solib turadi.) **Mahmudiy** — Xo‘sh?

Matmusa — Siz meni shaharning hamma olimlariga ko‘rsatib, mana men ko‘chada yurgan savodsiz, madaniyatsiz odamdan tayyorlangan direktor, deysiz. Men minbarga chiqib sayrab beraman. Hamma sizga qarsak chaladi. Shundan keyin men yana korxonaga qaytib borib o‘z kursimga o‘tiranmanmi? Yana direktorlik qilaveramanmi? Bu haqda siz qanday fikrdasiz, ustoz?

Mahmudiy — Hech kim onasining qornidan olim yoki rahbar bo‘lib tug‘ilmaydi. Hamma faylasuflar, hamma mutafakkirlar yuksak minbarlardan va‘z aytguncha bola bo‘lib shataloq otib yuguradilar, talabalar bilan gurpaklashib imtihonlarga tayyorlanadilar, ikki olib yig‘lab yuradilar. Hech kim ularga kecha sen bola eding, tuproq o‘ynab yurar eding deb ta’na qilmaydi. Siz ham ta’na eshitmaysiz. Ulardan sizning farqingiz shu bo‘ladiki, ular mana shu sifat o‘zgarishni o‘n-o‘n besh yilda bosib o‘tsalar, siz bir yilda o‘tdingiz. Siz mashhur odam bo‘lasiz, yangi ilmiy dunyoqarash mujassam bo‘lgan shaxs bo‘lasiz.

Matmusa — Sizning fikringiz shundaymi, ustoz?

Mahmudiy — Ha, shunday.

Matmusa — Endi mening fikrimni eshiting. Men yangi ilmiy dunyoqarash mujassam bo'lgan mashhur shaxs bo'lishni istamayman. Men faqat oddiy kamtarin direktor bo'lishni xohlayman. Bizga o'xshagan faqirlarga shu ham bo'laveradi.

Mahmudiy — (Hayratda) Bu nima deganingiz?

Matmusa — Bu shunday deganimki, bugungi majlisingizga men bormayman. Chunki men katta bir korxonaning direktoriman, akademik Pavlov tarjima qilgan it emasman.

Mahmudiy — Tarjima emas, tajriba.

Matmusa — Endi buning ahamiyati yo'q. Chunki shu soatdan sizning ustozlik, mening shogirdlik muhlatim tugadi. Biz roppa rosa bir yilga kelishgan edik.

Mahmudiy — (Zo'raki kulib) Durust, durust. Hazilga ham chakana emassiz. O'ylaymanki, bugungi imtihondan siz a'lo o'tasiz. Ketdik. Vaqt o'tmasin.

Matmusa — Menda hazil nima qiladi? Siz meni hazilga o'rgatibsizmiki, menda hazil bo'lsin. Men siz uchun odam emas, eksperiment quroli, o'z tilingiz bilan somnambula bo'ldim xolos. Siz mening boshimga bosh deb emas, xarita deb qaradingiz. Menga ilm berganingiz uchun tashakkur, ammo meni xor qilganlaringiz, karra jadvalni yodl olmaganimda uch kun och qo'yanlaringiz esimdan chiqmaydi. Men axir odam edim-ku. Yoki ilmi yo'q, martabasi yo'q odam emasmi? Siz bugun meni nega sizlayapsiz? Siz Matmusani emas, direktorni sizlayapsiz, mana bu makentosh bilan bu shlyapani sizlayapsiz!

Mahmudiy — Yo tavba! Bu gaplarni qayerdan o'rgandingiz?

Matmusa — Bularni men o'sha vaqtlarda ham bilar edim, lekin shunday silliq qilib aytaolmasdim. Siz faqat tilimni buro qildingiz.

Mahmudiy — Ichingizda shuncha dardingiz bormidi? Afsus, bilmagan ekanmiz.

Matmusa — Siz o'z ilmingizdan boshqa nimani bilardingiz? Sizga atrofingizdagi odamlar nima-yu, narsalar nima — baribir. Bir yil ichida siz meni qancha o'rgangan bo'lsangiz men sizni undan ham ko'proq o'rgandim. Siz og'zingizni ochmasingizdan aytmoqchi bo'lgan gapingizni bilaman. Hamma xayollaringiz, hamma niyatlaringiz menga besh qo'lday ayon. Maqsadingiz meni o'qitib, ta'lim berib odam qilishmi? Yo'q! Unday bo'lsa meni yo hunar maktabiga yo biror sirtqi o'qishga kiritib qo'yaqolgan bo'lardingiz. Axir men yaxshi bilaman: bu dunyoda birov bekor besh tiyinlik naf yetkazmaydi. Shuning uchun boshida men ajablanib: meni o'qitishdan sizga nima foyda

bor? — degan edim. Endi bilsam siz meni olimlar oʻrtasiga olib chiqib ayiq qilib oʻynatmoqchi ekansiz.

Mahmudiy — (Koʻkka qoʻl choʻzib) Ey parvardigor! Bormisan? Bor boʻlsang, yerga tushib mana bu rasvolikni tomosha qil!

Matmusa — (Qah-qah urib) Siz daxriysiz-ku. Meni ham oʻzingizdek dahriy qildingiz. Avvallari xudodan koʻrqar edim. Endi hech narsadan qoʻrqmayman. Xayr, salomat boʻling, men ketdim.

Mahmudiy — Toʻxta, qayoqqa?

Matmusa — Qayoqqa borishimni endi oʻzim bilaman.

Mahmudiy — Eh, Matmusa, Matmusa! Sen axir odamsan-ku. Nega mening holatimni tushunmaysan? Axir sen bugun majlisga bormasang, men butun umrga sharmandai sharmisor boʻlaman.

Matmusa — Siz sharmandai sharmisor boʻlmang deb, men oʻzimni sharmanda qilaymi?

Mahmudiy — Axir biz qancha mehnat qildik, ancha azoblar chekdik. Shuncha mashaqqatli yoʻlning oxirgi qadami qoldi. Bundan keyin men hech qachon seni... sizni bezovta qilmayman. Soʻnggi qadam, bir qadam xolos...

Matmusa — Soʻnggi qadam. Siz meni oldingizga solib, haydab, mana shu men turgan choʻqqiga olib keldingiz. Oldimda jarlik. Soʻnggi qadam meni jarga qulatib, sizni choʻqqiga olib chiqadi. Yoʻq, bu qadamga men rozi emasman.

Mahmudiy — Eh, nodon, nodon! Yoʻq, men oʻzim nodonman! Esiz mehnatlarim, esiz chekkan zahmatlarim.

Matmusa — (Choʻntagidan bir pachka pul chiqarib stolga qoʻyadi.) Mana buni olib qoʻying. Bu oʻsha mehnatlaringiz, zahmatlaringizning haqi. Men sizdan olgan besh yuzu yigirma soʻm ham shuning ichida. (Mahmudiy hang-mang boʻlib qolgan.)

Endi men boray. Hali zamon boshqarmada majlis boshlanadi. Ertaga ertalabdan yana majlis.

Mahmudiy — (Yolvorib tiz choʻkadi.) Mana shu oqargan sochlarim hurmati, senga bir harf oʻrgatish azobida peshanamga tushgan ajinlar hurmati, menga shafqat qil. Matmusamisan, Jalilovichmisan, goʻrmisan, badtarmisan — ikki dunyoda birovga xor-zor boʻlmasin — oyoqlaringni oʻpay, bir umr xizmatini qilay — menga shafqat qil. Gapirmasang ham yarim soat oʻsha yerda oʻtirib kel... Jon Matmusa Jalilovich!

Matmusa — O‘rningizdan turing. Uyat bo‘ladi. Gapimni eshiting.

Mahmudiy — Nima deysiz? Qulog‘im sizda. Aytganingizni qilay.

Matmusa — Men sizning chekkan mashaqqatlaringizni bilaman. Mayli, o‘sha azoblar haqqi...

Mahmudiy — O‘rgulay sizdan, Matmusa Jalilovich!

Matmusa — ...Men uchun kechirgan uyg‘oq kechalaringiz haqqi...

Mahmudiy — Qurboningiz bo‘lay, Matmusa Jalilovich!

Matmusa — ...Mendek g‘ofil bandani kamolga yetkazganingiz haqqi...

Mahmudiy — Xizmatiningizni qilay, Matmusa Jalilovich!

Matmusa — ...Sizni o‘zimga o‘rinbosar qilib olaman.

Mahmudiy — A?! (Gandiraklab divanga o‘tirib qoladi.)

Matmusa — Ahvolingizga bir qarang. Yuzingizda rang qolmapti. Boshingizga musicha in qo‘ysa bo‘ladi. Olimlik shunaqa mashaqqat bo‘lsa, nima qilasiz o‘zingizni qiynab? Undan ko‘ra menga o‘rinbosar bo‘ling. Tagingizda mashina, pichog‘ingiz moy ustida bo‘ladi.

Mahmudiy — (Yig‘lab) Gapiring, gapiring, marhamatli xo‘jayin!

Matmusa — Siz doim men bilan bo‘lasiz. Menga nutqlar, ma‘ruzalar tayyorlab berasiz, eng yaqin maslahatchim bo‘lasiz. Men bu nutqlarni baland minbarlardan qoyil qilib o‘qib beraman. Men martaba zinalaridan ko‘tarilib boraman, sizning ilmiy ishlaringizga sharoit yaratib beraman. Axir siz olimlar bamisoli g‘arq pishgan shaftolisiz. Sizga mana bizga o‘xshagan tirgovichlar kerak. Men sizga juda yo‘g‘on, baquvvat tirgovich bo‘laman.

Mahmudiy — (Irg‘ib o‘rnidan turadi.) Bo‘ldi, bo‘ldi. Hammasi ravshan. Bu odam ruhiy dardga yo‘liqqan. Tezda klinikaga olib borish kerak. Men hozir telefon qilaman. Telefon qani? Balki Napoleonlar palatasiga yotqizarmiz....

Matmusa — O‘zingizni uruntirmang, sobiq ustoz. Mening joyim Napoleonlar palatasida bo‘lsa, meni direktorlik lavozimiga ko‘targanlarning joyi qayerda bo‘ladi? Nodonligimni donolik deb, tavakkal aytgan gapimni bashorat deb atrofimda parvona bo‘layotganlarning joyi qayerda bo‘ladi? O‘zingizning joyingiz qayerda bo‘ladi, Mizrob Mahmudiy!

Mahmudiy — Yo‘qol ko‘zimdan, iblis! Menga ko‘rinma! (Stoldagi pachkali pulni unga otadi.)

Matmusa — Men ketaman. Lekin ko‘zingizga ko‘rinmay ilojimyo‘q. Axir men sizga kuyov bo‘ladigan odamman.

Mahmudiy — Nima, nima?

Matmusa — Hali siz sho‘rlilik bu gapdan ham bexabar bo‘lsangiz kerak. Biz singlingiz bilan oila quradiganmiz.

Mahmudiy — Bo‘lmagan gap! Men omon bo‘lsam Sunbulning tirnog‘ini ham ko‘rmaysan! Chiq uydan!

Matmusa — O‘zingizni qiynamang, aziz qayin og‘am.

Salomatligingiz bizga kerak. Singlingiz bilan hamma gapni kelishib qo‘yganmiz. U yog‘ini so‘rasangiz biz allaqachon eru xotinmiz.

Mahmudiy — Nima?!

(Shu payt halloslab Sunbul kiradi.)

Sunbul — Aka, nima qilib o‘tiribsizlar? Zal to‘lgan, hamma keldi — sizlar yo‘q. (O‘larning avzoyiga qarab) Nima gap o‘zi?

Mahmudiy— (Sunbulga yaqin kelib) Sunbul, singilginam! Menga qara! Mana bu iblis bizga tuhmat qilyapti. Oilamizning sha’niga dog‘ tushirmoqchi. U yolg‘on gapiryapti. Uning gaplari yolg‘on. Shundaymi? Sunbul, gapir! Nega jim turibsan?

Sunbul — (Yig‘lab) Aka, akajon, meni kechiring...

Mahmudiy — (Boshini changallab) Dahshat! Dahshat! Bu qanday sharmandalik! Ey zamin, nega yorilib meni yutib ketmaysan?

Matmusa — Dod-voyning foydasi yo‘q. Undan ko‘ra aka bo‘lib, ota bo‘lib bizga oq fotiha bering. Bugungi kafedagi o‘tirishni to‘yga aylantirib qo‘yaqolaylik.

Mahmudiy— (Sunbulni to‘sib) Yo‘q, yo‘q! Singlim, ko‘ryapsanmi? Bu dahshatli odam. Qarab turib seni baxtsiz qilmayman. Seni unga bermayman. Ket, ket, Azozil! Ko‘zimga ko‘rinma!

Matmusa — Hali shunaqami? Siz ikki yoshning sof muhabbatiga to‘siq bo‘lmoqchimisiz? Yo‘q! Unaqa zamonlar o‘tib ketgan! Singlingizni to‘rt devor ichida saqlashga haqqingiz yo‘q! Uning erki o‘zida. Uning muhabbatiga hech kim g‘ov bo‘lolmaydi. (Sunbulga) Sunbulxon, jonginam, men bilan yuring. Bu diqqinafas uydan ketaylik.

Mahmudiy — Haqqing yo‘q. Sunbulning o‘zi rozi emas. U sen bilan ketmaydi!

Matmusa — Ketadi. Ketmay qayoqqa boradi? (Oyoq ostida yotgan pachka pulni olib cho‘ntagiga soladi.) Mayli, bu sizning to‘yonangiz bo‘laqolsin. Qani, Sunbulxon, oldimga tushing.

(Sunbul tisariladi. Matmusa uni mahkam bilagidan ushlab tortqilab olib chiqadi.)

Sunbul — Aka, akajon, meni kechiring...

Mahmudiy — Dod, xonavayron bo‘ldim! Xonu-monimga o‘t ketdi, dod!

Parda

UCHINCHI FASL (XOTIMA O‘RNIDA)

O‘sha xona. Derazadan qor bosgan o‘rik shoxlari ko‘rinadi. Mahmudiy yolg‘iz. U pechka yonida o‘tiribdi. U ilmiy ishining so‘nggi sahifalarini yondirmoqsa. Atrofida bo‘shagan qog‘oz papkalari.

Mahmudiy — Yon, mening bir umrlik mehnatim, orzu-umidlarim, yon! Sening so‘nggi sahifalaring bilan xayrlashmoqdaman. Men xayolimda tiklagan imorat vayron bo‘ldi, yonib kul bo‘ldi.

Men doim tushimda yonayotgan kitoblarni ko‘rar edim. Bu ichki tuyg‘uning, noma‘lum bir sezgining ogohlantirishi, tug‘yoni ekan. Mening umrim yonib o‘tayotgan ekan.

Mana yoshim qirqqa qarab ketdi. Umrning guli bo‘lgan yoshlik orqada qoldi. Hey, Mahmudiy, o‘zingga bir hisob ber! Sen faqat mehnatni, institutni, laboratoriyani bilding. Mana bu qo‘lyozmalarimgni, mana bu xaritangni ko‘rding. Odam tanimading. Ilming, shuhrating — odamlar bilan sening o‘rtangda devor bo‘lib qoldi. Matmusa haq. Sen o‘zi o‘ragan pillaning ichida qolgan ipak qurtisan. Kurt bo‘lganda ham odamlarga nafi tegadigan, ipak beradigan kurt emas, ichidan kapalak chiqadigan kurt bo‘lding. U kapalak endi o‘zingning ustingda qanot qoqib yuripti.

(Sharob quyib ichadi.)

Bugun yilning oxirgi kuni. (Kalendarning so‘nggi varag‘ini yirtib oladi) Bir yil! U mana

shu bir varaq qog'ozday yonib ketdi. (O'tga tashlaydi) U bilan birga mening ishonchu e'tiqodim, men muqaddas deb bilgan orzu, maslagim yonib ketdi. Qani, ayt, Mahmudiy, sening maslaging nima edi? Sening e'tiqoding — inson tafakkuriga ishonch edi. Sen uning imkoniyatlari cheksiz deb, bu imkoniyatlar faqat ezgulikka safarbar bo'ladi deb imon keltirgan eding. Sen bir johil zotni odam qilib, kamolotga yetkazmoqchi eding. Oqibat nima bo'ldi? Joningga qasd qilgan jallodga qilich qayrab berding. Bu qilich endi bir umr boshingda turadi. Vaqtida kelgan o'lim insonning baxti ekan. Dunyoga ishonching yo'qolmasdan avval o'lib ketganing ulug' saodat ekan. Odamlarga mehning sovumasdan oldin tanang sovugani yaxshi ekan. Men qirqqa yetmasdan ma'naviy juvonmarg bo'lgan odamman. Endi bu yog'iga quruk gavidani soyadek sudrab o'tib ketishim kerak. Nimaga kerak menga bunaqa hayot?

(Odiljon kiradi.)

Kel, do'stim Odiljon, nega sham ko'tarib kelmading? (Odiljon hayron) Axir qabristonga sham ko'tarib boradilar.

Odiljon — Nimalar deyapsan, Mizrob?

Mahmudiy — Kel, o'tir! Menga qanaqa yangiliklar olib kelding!

Odiljon — Yangilik shuki, sening Matmusang boshqarmaga ko'tarildi.

Mahmudiy — Matmusam o'lib, Matmusasiz qolayin, — u qanaqa ishga o'tdi?

Odiljon — U endi boshqarmada bo'lim boshlig'i, odamlarning taqdirini hal qiladigan joyda o'tiribdi.

Mahmudiy — Bu hali holva. U institutga rahbar bo'lib keladi-da, meni institutdan haydaydi.

Odiljon — Tavba. O'zingdan chiqqan baloga qayga borursan davoga...

Mahmudiy — Kul, xandon tashlab kul. Mening ustimdan butun olam kulyapti.

Odiljon — Kulib emas, kuyib gapiryapman. Esingda bormi, bu tajribangni eshitgan kunim sendan: Matmusa qanaqa odam, insonligi, fazilatlarini qanaqa deb so'ragan edim. Shunda sen uni farzinga o'xshatgan eding. Mana o'sha farzin, piyodadan chiqqan farzin o'zingni mot qilib turibdi.

Mahmudiy — Bunday bo'lishini bilsam, uni piyodaligida yanchib tashlar edim. Bir beozor chuvolchang shunaqa dahshatli ajdaho bo'lishini qayoqdan bilay?

Odiljon — Eh, do‘stim Mizrob! Shunday ajoyib olim bo‘libsanu, lekin hali ham o‘sha go‘dakligingcha qolibsan. Sen odamshunos-ruhshunos ekansanu, odamlarni hatto o‘sha Matmusachalik ham bilmas ekansan. Hayotga ilm fazolaridan qarab undagi xascho‘plarni ko‘rmay qolibsan. Bu dunyoda Matmusaga o‘xshagan odamlar ko‘p. Ular hamma narsaga manfaat ko‘zi bilan qaraydilar. Tabiat ularning ikki ko‘zini tarozuning pallasini qilib yaratgan. Ular bu torozuda odamlarni tortadilar. Hayot ularni kim bilan duch qilsa avvalo o‘sha tarozuning bir pallasiga uni, bir pallasiga o‘zlarini qo‘yadilar. Yuqoridagi odamga qulbachchaday xizmat qiladilar, quyidagini esa eshak qilib minadilar..

Mana, sening Matmusang shunaqa odam. Sen shunday odamning tilini burro, o‘zini dono qilding. Sen bergan ilmuning qo‘lida gurzi bo‘ladi.

Mahmudiy — Men-ku ko‘r, nodon ekanman, yaxshi-yomonni bilmaydigan go‘l ekanman, odamlarga nima bo‘ldi? Nega hech kim uni fosh qilmaydi? Uning darajasi menga ma‘lum-ku. O‘qish, yozish, silliq gapirishni bilgani bilan hali tafakkuri mustaqil xulosalar chiqarishgacha borib yetgani yo‘q. Hatto oliy ma‘lumoti yo‘q.

Odiljon — Qishlokda o‘sgansan-ku, devpechakni ko‘rganmisan? U o‘zicha yerdan bir qarich ham ko‘tarilolmaydi. Matmusa sening yelkangdan oshib balandroq daraxtlarga chirmashib oldi. U hali ko‘p daraxtning ildizini quritadi. Devpechak daraxtni bo‘g‘ishdan oldin u bilan do‘st bo‘lar ekan. Sadoqatini bildirib, do‘stlik, mehr, oqibat haqidagi afsonalar bilan uni o‘rab tashlar ekan. Alla aytib uxlatib qo‘yar ekan-da, uyqusida bo‘g‘ar ekan.

(Sunbul kiradi. Yig‘lab o‘zini akasining quchog‘iga otadi.)

Sunbul — Peshonam qursin, peshonam! Quvg‘indi bo‘ldim.

Mahmudiy — Quvg‘indi bo‘ldim? Nima uchun?

Sunbul — Matmusangiz endi men bilan turmas emish.

Mahmudiy — Nima sabab?

Sunbul — Men hayotdan orqada krlgan emishman...

Mahmudiy — Ana! Odiljon, dunyoning ishlarini qara! Bir yil burun shu uyga isqirt kamzulda, yag‘ir ishtonda kirib kelgan u zot madaniy, bilimdon bo‘libdilar-u, unga alifbedan tortib ilmi nujumga qadar o‘rgatgan bir institut talabasi hayotdan orqada qolibdi! Sen muxbir bo‘lib har kimdan interv‘yu olavermay mana bunaqa gaplarni yozsang bo‘lmaydimi? (Sunbulga) Oqibat mana shunday bo‘lishi kerak edi. Ko‘ngil ko‘yiga yurmoqning jazosi shu.

Sunbul — Nima qilay, aka? U mening qadrimga yetar, deb o‘ylagan edim.

Mahmudiy — (Qo‘l siltab) Ey, siz ayollar, sizlarni hech tushunib bo‘ladimi? Toshidan qattiq ham, ipakdan mayin hamsizning ko‘nglingiz. (Odiljonga) Mana shuning uchun dunyodan bo‘ydoq o‘tib ketaman, deb ahd qilganman.

Sunbul — Bilmadim, gunohim nima ekan? Kun bo‘yi xizmatini qilaman, idorasining yozishmalari bormi, ikki og‘iz gapiradigan nutqi bormi, hammasini o‘zim tayyorlayman. Yana kechalari gazeta o‘qib unga yangiliklarni gapirib beraman. Mana endi mendan ko‘ra lobarrog‘ini topib olibdi. (Yig‘laydi).

Mahmudiy — Dard ustiga chipqon deb shuni aytadilar.

Sunbul — Boshida sizga shu tajriba zarurmidi? Uni ko‘rmay o‘tganimda menga bu balolar yo‘q edi.

Mahmudiy — Hammasiga sabab ko‘zning ko‘rligi yu peshonaning sho‘rligi.

Odiljon — Mizrob, agar sen o‘zing yasagan qo‘g‘irchoqni o‘zing tiyib qo‘yaolmasang, bu ishni sen uchun men qilaman. Hozir boshqarmaga borib uni shartta hiqildog‘idan tutaman. U hakda boplab felʼeton yozaman. (Chiqqa boshlaydi.)

Sunbul — Odiljon aka, to‘xtang. Yolboraman, bormang. **Odiljon** — Nega? Sizni oyoq osti qilgan o‘sha nomardning ko‘zini ochib qo‘yadigan vaqt keldi.

Sunbul — Yo‘q, yo‘q! U men bilan turmasa ham mayli. Faqat unga jabr bo‘lmasin. Nima qilay, men o‘sha bevafo ni yaxshi ko‘raman. (Yig‘laydi.)

Odiljon — (Noiloj qaytib) Men dunyoga podsho bo‘lganimda yomonlarning yoniga qo‘shib ko‘ngli bo‘shlarni jazolar edim.

*Adolat qo‘lida bo‘lmasa shamshir
Pok dillar qismati xo‘rlilik va tahqir.
Go‘zallik o‘zini qo‘riqlasin deb
Hatto gulga tikan bog‘lagan taqdir.*

(Sunbul ho‘ngrab yig‘laydi.)

Yo‘q, men bunga chidolmayman. Hoziroq borib o‘sha kursiga qo‘ngan to‘tiqo‘shni xippa bo‘g‘aman.

(Eshikka qarab yuradi. Shu payt Matmusa kirib keladi. U juda horg‘in va parishon

ahvolda.)

Matmusa — Ovora bo‘lmang, Odiljon aka. Men o‘zim keldim.

Mahmudiy — Nega keldingiz? Yana mening ustimdan kulganimi? Yoki meni o‘zingizga yugurdak tayinlab, shu bilan tabriklagani keldingizmi?

Matmusa — Yo‘q, marhamatli ustozim, men sizni boshqa narsa bilan tabriklagani keldim. Meni boshqarmadan haydashdi. Siz menga tank bo‘lishni o‘rgatgan edingiz. U dargohda zambaraklarga duch keldim. G‘alabangiz muborak bo‘lsin, ustoz!

Mahmudiy — Qoyaga tirmashgan tipratikanning ahvoli shu. Ko‘rnamakning jazosi shu.

Matmusa — Yo‘q, bu avvalo sizga berilgan jazo. Men kimman? Men faqat siz uchirma qilib chiqargan qushman. Siz bergan qanot birinchi parvozdayoq uzilib tushdi. Siz mening quyrug‘imga qog‘oz yopishtirgan ekansiz.

Mahmudiy — Afsus, ming afsus. Senga ketgan mehnatlarimning yarmini sarf qilganimda maymundan odam yasagan bo‘lar edim. Esiz shuncha chekkan zahmatlarim.

Matmusa — Afsus qilmang, siz niyatingizga yetdingiz. Maymundan odam qilolmagan bo‘lsangiz ham, mana, odamdan maymun yasadingiz. Men go‘l, savodsiz bo‘lsam ham odam edim. O‘z ungan joyim, o‘z hayotim, o‘z maqsadim bor edi. Siz mening ildizlarimni beshafqat qirqib tashladingiz. Qani u sodda odamligim, qani u Matmusa? Siz meni o‘zimdan o‘g‘irladingiz. Meni o‘zimga qaytib bering, o‘sha Matmusaligimni bering.

Mahmudiy — Mana bu da‘voni eshit, Odiljon. Mana bu sayrashga quloq sol! Quloqlaring orom olayaptimi? (Matmusaga) Mening yonib ketgan umrimni menga kim qaytarib beradi? Seni deb yo‘qotgan obro‘-e‘tiborimni kimdan talab qilaman? Yerga bukilgan nomusni qayerdan qaytarib olay? Men hali seni o‘zingdan o‘g‘irladimmi? Sen uch kun soqol oldirmay yursang yana o‘sha Matmusasan. Men bo‘lsam sen tufayli tirik o‘ldim, bir hovuch tuproqqa aylandim. Eshitdingmi? Endi ket, qaytib ko‘zimga ko‘rinma!

Matmusa — Qayoqqa boraman? Somon bozorigami? Hammolikkami? Yo‘q. Endi bu qo‘llarim qopga somon tiqolmaydi. U telefon trubkasini ushlashga, stolni mushtlashga o‘rganib qoldi. Men endi yelkamga yuk orta olmayman. Chunki, siz meni tuyaqush qilib qo‘ydingiz. Tuya bo‘lib yuk tashiyolmayman, qush bo‘lib osmonga ucholmayman. (Muattar kiradi, hayron bo‘lib hammaga bir-bir qaraydi, so‘ng yig‘lab o‘tirgan Sunbulning yoniga kelib uni ovuta boshlaydi.)

Mahmudiy — (Sunbulning yoniga keladi) Qo‘y, singlim, yig‘lama, boshingni ko‘tar. Ezilgan yuragimni sen ham ezma. Men yanglishgan ekanman. Bu tuban zotning ongida

tafakkur chirog'ini yoqmoqchi edim. Menga chiroq bo'lib ko'ringan narsa shilliqqurt ekan. Men vafodor it deb boqqan maxluq bo'ri chiqib qoldi.

Sunbul — Mening aybim nima? Men nima gunoh qildim, odamlar? Chin yurakdan mehr bog'lashning oqibati shumi? Men axir boylik, martaba, shonu shuhrat uchun yaxshi ko'rganim yo'q-ku. Yengiltak qizlardan emasman-ku. Men mana shu odamni o'sha eski to'nida yaxshi ko'rgan edim. Unga butun mehrimni bag'ishladim, hayotda o'rnini topsin deb ilmu-ma'rifat o'rgatdim. Mening aybim nima? Odamga ishonganimmi? Shunchalar bashafqatmiding, hayot?

Mahmudiy — Qo'y, singlim, yig'lama. Biz endi qishloqqa qaytib ketamiz. Men bu olamning g'avg'olaridan kechib endi tinch osudalikda yashayman. Bir parcha yerga dehqonchilik qilib umr kechiraman. Eng halol turmush o'sha ekan. Ekkan bug'doyingdan arpa emas, bug'doy chiqishiga ishonib kechalari tinch uxlaysan. (Matmusaga) Senga ham, ey manfur banda, agar ko'kragingda insonlikdan zarra uchqun qolgan bo'lsa shuni maslahat beraman.

Matmusa — Koshki edi shunday qila olsam. Koshki edi avval boshida shu uyga qadam qo'ymagan bo'lsam. Men nodon ilm olib nima qilardim? Chorig'imni sudrab yuraversam bo'lmasmidi? Har katalakka sig'ib ketadigan Matmusa bugun dunyoga sig'may qoldi. Bu olamda menga o'xshaganlarga kun yo'q ekan.

Meni kechir, Sunbul, seni baxtsiz qildim. Mana shu, yigirma uch yoshimda oqargan sochlarim haqqi meni kechir. Bu uyga faqat sendan uzr so'ragani keldim. Mening tuban hayotimda yorug' nuqta faqat sen eding. Seni ham yo'qotdim. Men endi odam emasman. Sizga esa, mehribon ustozim, yana bir marta ta'zim qilaman. Mana bu menga bergan tumoringiz. U endi kerak emas. Oling. O'zingiz taqib yuring.

(Shaxd bilan chiqadi.)

Sunbul — (Odiljonga) Uni qaytaring.

Muattar — Keragi yo'q. U hech qayoqqa ketmaydi.

Mahmudiy — O'zini bir nima qilib qo'ymasin.

Muattar — Uning taqdiri haqida ilgariroq o'ylasangiz bo'lardi, Mizrob aka.

Mahmudiy — Menga ta'na toshini otmagan bir siz qolib edingiz. O'lganning ustiga tepmoq, deb shuni aytadilar.

Odiljon — Yo'q. Mizrob. Bu ta'na toshi emas, bu haq gap. Men shu daqiqalarda xayolan dunyoni aylanib chiqdim. Inson degani kimu hayot degani nima? Men ham o'zimni

muxbir deb yurgan ekanman. Yuzlab, minglab odamlar bilan suhbat qilib ularning mehnatini, rejalarini yozibman-u, eng muhim bir narsani chetlab o'tibman. Men odamlarning yuragini, eng muqaddas qalb tuyg'ularini, e'tiqodini unutib qo'yibman. Sen ham, do'stim, odamzodning yorug' yulduzini uning tafakkuridan emas, yuragidan izlamog'ing kerak edi. Yurak esa sen bilan biz o'ylagandan ko'ra murakkabroq ekan. Inson miyasining xaritasini tuzish mumkindir, ammo yurakning xaritasini chizib bo'lmaz. Kelajak aqlli mashinalar qurar, lekin ming yilda ham hislik, dardlik bir hilqat yaratolmas.

Sen bir yil davomida bir odamning miyasiga olam haqiqatlarini joylabsan uning yurak tuyg'ulari bilan, dardu alami, orzu armonlari bilan qiziqmabsan.

Mahmudiy — O'z yuragiga quloq solgan odamgina boshkalarining yuragini eshitishi mumkin. Men ko'kragimda nima borligini esdan chiqarib qo'yibman. Muattarxon, siz meni kechiring. Men endi sizni familiyangizni aytib chaqirmayman. Men uchun juda og'ir shu kunlarda sizning yordamingiz, hamdamligingiz kerak. Shunga men muhtojman. Matmusani hayotga qaytarishda menga yordam bering. Shunda meni ham hayotga qaytargan bo'lar edingiz.

Muattar — U odamog'ir ruhiy xastalikka uchragan. Asablari o'ta toliqqan. Bir necha muddat bizning klinikada davolanadi.

Lekin Mizrob aka, uni bu darddan xalos qilish ancha mushkul bo'ladi. Odamlardan ustun bo'lish xayoli uni osonlikcha tark etmasa kerak. Bu kasal keyin ham qaytalab turadi. Shunda odamlar shafqat va mehribonlik ko'rsatib uni o'z joyiga o'tqazishlari kerak. Matmusaning takdiri odamlarning qo'lida.

Odiljon — Sunbulxon, Muattarxon, endi tezroq dasturxon yozinglar. Ha demay yangi yil ham kelib qoladi. Biz bu tashvishli yilni tezroq kuzatib, yangisini kutib olaylik.

(Hammalari kirishib dasturxon tuzaydilar, qadahlar to'ldiradilar. Odiljon sahna oldiga chiqadi.)

Bu hikoyaning yozuvchisi men bo'laman. Hikoya mana oxirlab qoldi. Lekin uni qanday tugatsam ekan? Mizrob do'stimning, Muattarxonning, Sunbulxonning, Matmusaning taqdirleri nima bo'ladi? Buni men bilmayman. Men hali o'z yuragimda nimalar borligini bilmaymanu, boshqalarning yuragini qayoqdan bilay?

Tamom.